

MIGRATSIYA VAZIYATIGA OID HISOBOT

2023-YIL OKTABR-DEKABR

O'ZBEKISTON

MIGRATSIYA BO'YICHA XALQARO TASHKILOT (IOM)
MOBILLIKNI KUZATISH MATRITSASI (MTM)



Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development
and Cooperation SDC



Co-funded by
the European Union

Mundarija

Kirish	3
Metodologiya	3
Hisobot qamrov doirasi	3
Xalqaro va ichki migrantlar ko‘lami va oqimi	4
O‘zbekistonga doimiy yashash uchun migratsiya	5
O‘zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya	6
O‘zbekistondan chet elga mehnat migratsiyasi	6
O‘zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy davlatlar	7
Iqlim o‘zgarishi va migratsiya	10
Noqonuniy migratsiya	11
O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari oqimi	11
Migratsiya ma’lumotlari bo‘yicha IOM malaka oshirish sessiyalari	12
Qisqartmalar	13
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	14

Kirish

Ushbu hisobot 2023-yil oktabr-dekabr oylari uchun mavjud ochiq ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistondagi migratsiya muammolariga oid so'nggi jarayonlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi hamda jamoatchilikka ochiq bo'lgan milliy va xalqaro ma'lumotlar to'plami asosida butun o'tgan yil uchun migratsiya jarayonlariga oid asosiy xulosalarni keltiradi. Hisobot mamlakatdagi migratsiya vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan so'nggi yirik global va mintaqaviy voqealarni o'z ichiga oladi. Rossiyaning Ukrainaga bosqini davom etishi hamda buning natijasida an'anaviy migratsiya yo'laklari, mehnat migratsiyasi oqimining o'zgarishi, iqlim o'zgarishi va migratsiya xavotirlarining kuchayishi, o'sib borayotgan urbanizatsiya jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, tartibsiz migratsiya jarayonlarining kuchayishi va boshqa muhim voqealar mamlakatdagi ushbu davrda insonlar mobilligi va migratsiya harakatining asosiy omili sifatida tavsiflangan. Shuningdek, hisobot ushbu davrda O'zbekistonda IOM tomonidan taqdim etilgan migratsiya ma'lumotlari bo'yicha malaka oshirish sessiyalari haqida to'xtalib, mazkur yo'nalishdagi sa'yi-harakatlarni yoritadi.

Metodologiya

IOM tomonidan mavjud statistik ma'lumotlar to'plandi, qayta ishlandi. Tadqiqot va tahlillar uchun manbalar sifatida milliy va xalqaro tashkilotlar, milliy tadqiqot markazlari va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun dolzarb hisoblangan mualliflarning nashrlari hamda adabiyotlar sharhlari tanlab olindi. Asosiy ma'lumotlar manbalari quyidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan:

- Milliy statistika idoralari va Markaziy banklar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi;
- Tegishli davlat organlarining hisobotlari;
- Tegishli xalqaro tashkilotlarning hisobotlari;
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) agentliklari;
- Jahon banki guruhi (JBG).

Ikkilamchi manbalar, jumladan xabarlar va maqolalar, mamlakatdagi mintaqaviy migratsiya yo'nalishlarini yoritishda foydalanildi.

Hisobot qamrov doirasi

Hisobotda O'zbekistondagi migratsiya jarayonlari bilan bog'liq oldingi hisobotlarda yoritilgan eng dolzarb mavzularga e'tibor qaratishda davom etiladi. Hisobotda mavjud ikkilamchi manbalardan foydalangan holda xalqaro va ichki migratsiya ko'lami, doimiy yashash maqsadidagi migratsiya va emigratsiya oqimlari, O'zbekistondan chetga mehnat migratsiyasi, o'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlar, iqlim o'zgarishi va migratsiya muammolari, noqonuniy migratsiya, chet eldan pul o'tkazmalari va boshqa mavzular yoritiladi. Shu bilan birga, butun yil uchun tegishli migratsiya sohalariga oid yil yakunlari tahlil qilinadi. Ma'lumotlarning cheklanganligi (1) ko'rsatilgan davr uchun ba'zi ma'lumotlarning mavjud emasligi, (2) boshqa ma'lumotlar bilan mos kelmasligi va nomutanosib guruhlarga ajratilishi yoki (3) jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan metodologiyalar tufayli kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalarga murojaat qiling.




Eslatma: Ushbu xaritadan faqat tasvirlash maqsadida foydalanilgan. Ushbu xaritadagi nomlar va chegaralar IOM rasmiy munosabatini anglatmaydi.

Xalqaro va ichki migrantlar ko'lamini va oqimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat) asosiy milliy statistika organi sifatida ichki va xalqaro migratsiya oqimlari bo'yicha so'nggi ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu hisobotda keltirilgan O'zStat ma'lumotlari boshqa manbalardan olingan ma'lumotlardan yig'ish davri va atamalar ta'rifidagi tafovutlar tufayli farq qilishi mumkin.


O'zStatning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga mamlakat aholisining umumiy soni qariyb 36,8 million kishiga yetgan. 2023-yilning oktabr-dekabr oylarida ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiya oqimi 50,1 ming kishini tashkil etgan va ularning 58.3 foizini ayollar (29,2 ming kishi), 41.7 foizini erkaklar (20,9 ming kishi) tashkil etdi (O'zStat, 2024-yil).

1-rasm. Ko'chib kelish migratsiyasi, 2023-yil (mutlaq raqamlar va foizlar)



Manba: O'zStat, 2024-yil

2-rasm. Ko'chib ketish migratsiyasi, 2023-yil (mutlaq raqamlar va foizlar)



Manba: O'zStat, 2024-yil


Bu 2022-yilning so'nggi uch oyidagi ko'chib kelish migratsiyasiga nisbatan (47,912 kishi) deyarli 4.4 foiz o'sishni tashkil etdi. 2023-yilda jami ko'chib kelish migratsiya oqimi 218,8 ming kishini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan (214,821 kishi) 1.8 foizga oshdi. 2023-yilda jami ko'chib kelish migratsiya oqimida ayollarning ulushi 58.4 foizni (127,8 ming kishi) tashkil etgan bo'lsa, umumiy ko'chib kelish migratsiya oqimining 41,6 foizini (91 000 kishi) erkaklar tashkil etdi. 2023-yilda ko'chib kelish migratsiya jarayonining asosiy qismi (169,7 ming kishi yoki 77.6%) shaharlarda, kamroq qismi qishloq joylarida (49,1 ming kishi yoki 22.4%) yuz berdi. Ko'chib kelish migratsiya oqimi – bu bir hududga chet eldan va O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan ko'chib kelganlar sonidan iborat (O'zStat, 2024 yil).

2023-yil oktabr-dekabr oylarida ko'chib ketish migratsiya oqimi 52,1 ming kishini tashkil etdi – 58.2 foizini ayollar (30,3 ming kishi) va 41.8 foizini erkaklar (21,8 ming kishi) tashkil etdi. Bu 2022-yil oktabr-dekabr oylarida qayd

etilgan ko'chib ketish migratsiyasiga nisbatan 15.7 foizga (43,927 kishi) ko'pdir. 2023-yilda jami ro'yxatga olingan ko'chib ketish migratsiya oqimi 233,2 ming kishini tashkil etib, uning 135,4 ming nafari ayollar (58.1 foiz) va 97,8 ming nafari erkaklar (41.9 foiz) edi. (O'zStat, 2024-yil). Bu 2022-yildagi jami ko'chib ketish migratsiya oqimiga (221,498 kishi) nisbatan 5.1 foizga ko'pdir (O'zStat, 2023-yil). 2023-yilda ro'yxatga olingan ko'chib ketish migratsiyasi jarayonining 68 foizi (158,7 ming nafar) shaharlarga, 32 foizi esa (74,5 ming nafar) qishloq joylariga to'g'ri keldi. Ko'chib ketish migratsiya oqimi mamlakat ichida va mamlakatdan tashqariga ko'chib ketuvchilar sonini nazarda tutadi (O'zStat, 2024-yil).

Ichki migratsiya jarayonini kuzatish tizimlari, birinchi navbatda, mamlakat ichidagi doimiy yashash joylaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarga tayanadi. O'zStat ma'lumotlari asosida 2023-yilda mamlakat ichida bir hududdan ikkinchi hududga 215,864 kishi ichki migratsiyani amalga oshirganligini ko'rish mumkin. 2023-yilda ro'yxatga olingan ichki migratsiya jarayonida 126,336 nafar ayollar (58.5 foiz) va 89,530 nafar erkaklar (41.5%) ishtirok etgan. Bu 2022-yilda qayd etilgan ichki migratsiyaga (212,498 kishi – 60.3 % ayollar va 39.7 % erkaklar) nisbatan qariyb 1.5 foizga ko'pdir (O'zStat, 2023-yil).


3-rasm. Qayd etilgan ichki migratsiya ko'lami, 2023-yil (mutlaq raqamlar va foizlar)



Manba: O'zStat, 2024-yil

O'zStat bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonga qisqa muddatli tijorat maqsadida jami 70,4 ming nafar chet el fuqarosi tashrif buyurgan. Ularning asosiy qismini Turkmaniston fuqarolari tashkil etgan bo'lsa (46,5 ming kishi), undan keyingi o'rinlarda Tojikiston (14,8 ming kishi), Afg'oniston (1,9 ming kishi), Turkiya Respublikasi (1000 kishi), Xitoy (1000 kishi) va boshqa mamlakatlar (5200 nafar) fuqarolari tashkil etdi (O'zStat, 2024-yil).

4-rasm. O'zbekistonga qisqa muddatga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining ulushi, 2023-yil (foiz)



Manba: O'zStat, 2024-yil


O'zbekistonga doimiy yashash uchun migratsiya

2023-yilning oktabrdan dekabrigacha O'zbekistonga doimiy yashash maqsadida 693 nafar xalqaro migrant kelgan. Bu doimiy yashash uchun xalqaro migratsiya ko'laminin 2022-yilning shu davriga (833 kishi) nisbatan 16.8 foizga ko'pdir. Bu davrda O'zbekistonga kelgan xalqaro migrantlarning ko'pchiligi Rossiya Federatsiyasi fuqarolari (43% yoki 295 kishi), undan keyingi o'rinlarda Qozog'iston (25% yoki 172 kishi), Tojikiston (7% yoki 48 kishi), Qirg'iziston (5%, yoki 34 kishi), Turkmaniston (3% yoki 24 kishi) va boshqa mamlakat (17% yoki 120 kishi) fuqarolari bo'lgan (O'zStat, 2024-yil).

2023-yilning butun davri mobaynida O'zbekistonga doimiy yashash maqsadida kelgan xalqaro migrantlarning umumiy soni 2,955 nafarni tashkil etgan — 1,482 nafar ayol (50.2 %) va 1 473 nafar erkak (49.8 %). Xalqaro migrantlarning kelib chiqish mamlakatlari bo'yicha taqsimotida ham 2023-yil davomida mamlakatlarning xuddi shunday joylashuvi qayd etilgan – asosan Rossiya Federatsiyasi fuqarolari (39.8%, 1,175 kishi), undan keyingi o'rinlarda Qozog'iston (24.6% yoki 726 kishi), Tojikiston (9.7% yoki 286 kishi), Qirg'iziston (5.1% yoki 150 kishi), Turkmaniston

(2.1% yoki 61 kishi) va boshqa mamlakatlar (18.7%, yoki 557 kishi) fuqarolari doimiy yashash maqsadida O'zbekistonga kelgan (O'zStat, 2024-yil). 2023-yilda O'zbekistonga doimiy maqsadida kelgan xalqaro migrantlar soni 2022-yildagi xalqaro migrantlar soniga (2,322 nafar) nisbatan 21.4 foizga oshgan (O'zStat, 2023-yil).

5-rasm. O'zbekistonga mamlakatlar bo'yicha doimiy yashash uchun kelgan migrantlar soni, 2023-yil oktyabr-dekabr (mutlaq raqamlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil

O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya

2023-yil oktabr-dekabr oylarida O'zbekistondan doimiy yashash uchun xorijga ko'chib ketgan shaxslar soni 2,670 nafarni tashkil etdi. Bu 2022-yilning shu davriga nisbatan 47.3 foizga ko'pdir (5,639 kishi). Bu davrda qayd qilingan emigrantlarning asosiy qismi Qozog'istonga (79.8% yoki 2,130 kishi) ko'chib ketgan. 2023-yil oktabr-dekabr oylarida O'zbekistondan emigratsiya amalga oshirilgan davlatlar qatorida Rossiya Federatsiyasi (15.8% yoki 422 kishi), Koreya Respublikasi (1.3% yoki 36 kishi), Qirg'iziston (0.7% yoki 19 kishi), Turkmaniston (0.3% yoki 8 kishi) va boshqa mamlakatlar (2.1% yoki 55 kishi) qayd etilgan (O'zStat, 2024-yil).

2023-yilda O'zbekistondan boshqa davlatlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan shaxslarning umumiy soni 17,336 nafar bo'lib, ularning 9,066 nafari ayollar (52.3%) va 8,270 nafari erkaklar (47.7%) bo'lgan. 2023-yilda chet elda doimiy yashash maqsadida O'zbekistondan amalga oshirilgan emigratsiyaning asosiy qismi Qozog'istonga to'g'ri kelgan (81.1% yoki 14,051 kishi). Undan keyingi o'rinlarda Rossiya Federatsiyasi (15.4% yoki 2,670 kishi), Koreya Respublikasi (0,6% yoki 107 kishi), Qirg'iziston (0,5% yoki 91 kishi), Turkmaniston (0,2 foiz, 40 kishi) va boshqa davlatlar (2.2% yoki 377 kishi) qayd etilgan (O'zStat, 2024-yil). 2023-yilda O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ko'chib ketganlar soni 2022-yildagi emigrantlar soniga (8,790 kishi) nisbatan qariyb ikki baravar ko'pni tashkil etgan (O'zStat, 2023-yil).

6-rasm. O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya ko'lami, 2023-yil oktabr-dekabr (mutlaq raqamlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil

O'zbekistondan chet elga mehnat migratsiyasi

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning dekabr oyi holatiga ko'ra xorijdagi o'zbekistonlik mehnat migrantlarining soni qariyb ikki million kishini tashkil etadi – 1,452,300 nafar erkaklar (72.4%) va 547,7 ming nafarga yaqin ayollardir (27.6%). Bu davrda O'zbekistondan ketgan mehnat migrantlarining aksariyati Rossiya Federatsiyasida qayd etilgan (60% yoki 1,2 million kishi), undan

keyin Qozog'iston (10% yoki 191,8 ming kishi), Turkiya Respublikasi (6% yoki 113,8 ming kishi), Koreya Respublikasi (3% yoki 68,1 ming kishi) va boshqa mamlakatlar (21% yoki 424,4 ming kishi) bo'lgan (TMMA, 2024-yil).


7-rasm. O'zbekistonlik mehnat migrantlarining xorijdagi mamlakatlar bo'yicha ulushi, 2023-yil dekabr (foiz)



Manba: TMMA, 2023-yil

Mehnat migrantlarining asosiy qismi qurilish (52.7%) sanoat (12.8%), xizmat ko'rsatish (9.7%), umumiy ovqatlanish (6.9%), savdo (6.7%), transport (4.3%) qishloq xo'jaligi (4.1%) va boshqa tarmoqlarda (2.8%) faoliyat yuritgan (TMMA, 2024-yil).

8-rasm. 2023-yilda TMMA tomonidan tashkil etilgan chet elga ishga yuborish dasturlari orqali chet elga yuborilgan shaxslar, (mutlaq raqamlar)



Manba: TMMA, 2023-yil

TMMA 2023-yilda ham O'zbekistondan mehnat migrantlari uchun potensial tashqi mehnat bozorlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarini davom ettirdi hamda shu davrda O'zbekistondan mehnat migrantlarini yollash bo'yicha bir qancha mamlakatlardagi ish beruvchilar bilan 118 ta bitim va kelishuvga erishganliklarini ma'lum qildi. Ushbu shartnomalar TMMA va asosan Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Litva, Yaponiya va boshqa davlatlardagi bandlik agentliklari o'rtasida tuzilgan. Bu kelishuvlar O'zbekistondan o'sha davlatlarga mehnat migrantlarini yollashga qaratilgan. Bundan tashqari, TMMA 2023-yilda tashkil etilgan chet elga ishga yuborish dasturlari orqali jami 38,401 kishiga chet elda ish bilan ta'minlashda yordam ko'rsatdi. Ularning ko'pchiligi Rossiya Federatsiyasiga (29,249 kishi), shuningdek, Koreya Respublikasi (4,882 kishi), Buyuk Britaniya (1,929 kishi), Qozog'iston (1,326 kishi) va boshqa mamlakatlarga (1,015 kishi) mehnat faoliyatini olib borishga yuborilgan (TMMA, 2024-yil).

O'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy davlatlar

Rossiya Federatsiyasi

Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, Rossiya Federatsiyasi o'zbekistonlik migrantlar uchun asosiy qabul qiluvchi mamlakat bo'lib qolmoqda. Rossiya Federatsiyasi Federal davlat statistika xizmati (RosStat) tomonidan taqdim etilgan so'nggi mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvaridan sentyabriga qadar Rossiya Federatsiyasiga 2,5 millionga yaqin O'zbekiston fuqarolari turli maqsadlarda mamlakatga tashrif buyurgan hamda ulardan 1,6 millionga yaqin shaxslar mehnat migranti sifatida ro'yxatga olingan (RoStat, 2023-yil).


Oxirgi paytlarda OAVda Rossiya Federatsiyasidagi Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan migrant ishchilarning Ukrainadagi urushga borishi va Rossiya tomonida qatnashish uchun faol harbiy xizmatga jalb qilish urinishlari haqida qator xabarlar tarqaldi. Ta'kidlanishicha, migrantlarga ko'ngilli sifatida urushda qatnashish evaziga yuqori oylik maosh va tezlashtirilgan Rossiya Federatsiyasi fuqaroligi va'da qilingan (BBC, 2023-yil). Bundan tashqari,

2023-yil oxirida Rossiya Federatsiyasida chet ellik migrantlarga, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelganlarga nisbatan politsiya reydlari ko'paygan. Politsiya masjidlar, fabrikalar va boshqa joylarda bo'lib, mehnat migrantlarining hujjatlarini tekshirgan hamda aksariyat hujjatsiz shaxslar qamoqqa olinib, ba'zi migrantlar harbiy safarbarlikka chaqirilgan (DW, 2023-yil).

Qozog'iston

Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi huzuridagi Milliy statistika byurosi (QozStat) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning ikkinchi yarmida Qozog'istonga doimiy yashash uchun 3,347 nafar O'zbekiston fuqarosi kelgan, bu 2023-yilning birinchi yarim yilligidagi ko'rsatgich (3,198 kishi) bilan ancha o'xshashdir. 2023-yilda shu maqsadda mamlakatga kelgan O'zbekiston fuqarolarining umumiy soni 6,545 nafarni tashkil etib, bu 2023-yilda doimiy yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan chet el fuqarolari soni bo'yicha Rossiya Federatsiyasidan (11,707 nafar) keyin ikkinchi o'rinni tashkil etgan. 2023-yilda Qozog'iston doimiy yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan barcha chet el fuqarolari orasida O'zbekiston fuqarolarining ulushi 25.8 foizni (25,399 kishi) tashkil etgan (QozStat, 2024-yil).

9-rasm. Qozog'istonda doimiy yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan o'zbekistonlik xalqaro migrantlar soni, 2023-yil (mutlaq son va foiz)




Manba: QozStat 2024-yil

Qozog'iston Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi (MAIMV) xabar berishicha, 2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, mahalliy ijroiya organlari ruxsati bilan mehnat qilayotgan chet ellik mehnat migrantlari soni 13,870 nafarni tashkil qilgan. Ular qatorida o'zbekistonlik 969 nafar mehnat migrantiga (6.9%) mamlakatda ishlashga ruxsat berilgan (MAIMV, 2023-yil). Biroq o'zbekistonlik mehnat migrantlarining aksariyatida ishlash uchun ruxsatnoma yo'qligi bois ularning haqiqiy soni borasida aniq raqamlar ma'lum emas

Turkiya Respublikasi

O'zStat ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Turkiya Respublikasiga turli maqsadlarda jami 187,700 nafar o'zbekistonlik tashrif buyurgan. (O'zStat, 2023-yil). Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqaruvi raisligi (MBR) raisligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, yashash uchun ruxsatnomaga ega o'zbekistonlik migrantlar soni 52,065 nafarni tashkil etib, bu yashash uchun ruxsatnomaga ega barcha chet elliklarning (1,107,032 nafar) 4.7 foizini tashkil etgan. (MBR, 2024-yil). Bu bilan o'zbekistonlik yashash uchun ruxsatnomaga ega migrantlar soni 2022-yil oxiridagiga (60,175 kishi) nisbatan 13.5 foizga kamaygan. (MBR, 2024-yil).

10-rasm. Turkiya Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan o'zbekistonlik xalqaro migrantlar soni, 2023-yil (mutlaq raqamlar va foiz)




Manba: MBR, 2024-yil

Koreya Respublikasi

Koreya Respublikasi Adliya vazirligining Koreya immigratsiya xizmati (KIX) tomonidan e'lon qilingan so'nggi hisobotga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib, Koreya Respublikasida 2 million 507 ming 626 nafar chet el fuqarosi istiqomat qilgan. Ulardan 87,698 nafari (3.5 foiz) O'zbekiston fuqarolari bo'lib, Koreya Respublikasidagi chet elliklar orasida beshinchi o'rinni egallagab (KIX, 2024-yil). Bu ko'rsatgich 2023-yil sentabriga nisbatan 1.2 foizga (86,620 kishi) va 2022-yil oxiriga nisbatan 9.7 foizga (79,136 nafar) o'sganligini ko'rish mumkin (KIX, 2024-yil).

11-rasm. Koreya Respublikasida istiqomat qiluvchi o'zbekistonlik migrantlar soni, 2023-yil (mutlaq raqamlar)




Manba: KIX, 2024-yil

2023-yil so'nggiga kelib, mamlakatdagi o'zbekistonlik migrantlarning aksariyati yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan (63% yoki 55,239 kishi) hamda mamlakatda yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan barcha xorijliklarning 4.1 foizini tashkil qilgan. Koreya Respublikasidagi barcha o'zbekistonlik migrantlar orasida O'zbekiston fuqarosi hisoblangan etnik koreyslar soni 43,320 kishini (49.3%) tashkil etgan. 2023-yil yakuni bo'yicha Koreya Respublikasidagi barcha O'zbekiston fuqarolaridan 24,914 nafari (28.4%) mamlakatda ishlash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan (KIX, 2024-yil).

2023-yil yakuniga ko'ra, Koreya Respublikasidagi o'zbekistonlik talabalar soni 12,530 nafar bo'lib, bu mamlakatdagi barcha xalqaro talabalarning (226,507 kishi) 5.5 foizini tashkil etgan (KIX, 2024-yil). Bu 2022-yilning shu davriga (11,555 nafar) nisbatan 7.8 foiz ko'proq hisoblanadi. (KIX, 2023-yil).

12-rasm. Koreya Respublikasida istiqomat qiluvchi o'zbekistonlik etnik koreyslar va doimiy yashash ruxsatnomalari egalari, 2023-yil (foiz)



Manba: KIX, 2023-yil


Yevropa Ittifoqi davlatlari

Yevrostat ma'lumotlariga asosan 2022-yil 31-dekabr holatiga ko'ra O'zbekiston fuqarolariga Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida berilgan yashash uchun ruxsatnomalar soni 40,406 nafarni tashkil etgan. Bu raqam hisobot tayyorlangan vaqtida 2023-yil uchun hali yangilanmagan.

2023-yilning oktabrdan dekabrigacha Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi 795 nafar O'zbekiston fuqarosiga Yevropa Ittifoqi hududini tark etish to'g'risida buyruq yuborilib, ularning aksariyati shu davrda Shvetsiya (270 kishi) va Latviyada (245 kishi) istiqomat qilgan. Yil davomida Yevropa Ittifoqi hududini tark etishga majbur bo'lgan O'zbekiston fuqarolarining umumiy soni 3,550 nafarga yetgan (Yevrostat, 2024-yil). Ushbu turdagu buyruqlarning aksariyati Shvetsiyada (895 kishi), Latviyada (845 kishi) va Litvada (365 kishi) chiqarilgan (Yevrostat, 2024-yil).

2023-yilning so'nggi uch oyida O'zbekiston fuqarolari tomonidan Yevropa Ittifoqi davlatlarida boshpana so'rab murojaat qilingan arizalar soni 240 taga teng bo'lib, ularning aksariyati (145 ta ariza yoki 60%) Shvetsiyada qabul qilingan. Shu bilan birga, o'tgan yil davomida O'zbekiston fuqarolari tomonidan boshpana so'rab murojaat qilingan arizalar umumiy soni 1,165 taga yetgan hamda bu arizalarning ham asosiy qismi (700 ta ariza yoki 60%) Shvetsiyada ro'yxatga olingan (Yevrostat, 2024-yil).

13-rasm. 2023-yilda Yevropa Ittifoqi hududini tark etishga majbur bo'lgan O'zbekiston fuqarolarining ulushi (foiz)



Manba: Yevrostat, 2023-yil

O'zbekistondan borayotgan mehnat migrantlarining aksariyati Polshani afzal ko'rishni mamlakatdagi chet ellik ishchilar ulushida ularning ulushi olti foizga oshganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston fuqarolari Polsha ijtimoiy sug'urta jamg'armasining 2023-yilda eng ko'p qayd etilgan chet elliklar orasida yettinchi o'rinni egallagan (2,026 kishi). Shu bilan birga, Polsha immigrantlarga Yevropa Ittifoqining eng ko'p yashash ruxsatnomalarini taqdim etgan (PISJ, 2023). Shu tariqa, O'zbekiston fuqarolari uchun Polsha integratsiya jarayonidagi to'siqlarning pastligi tufayli afzal ko'riladigan davlat bo'lib qolmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlari


Avval xabar qilinganidek, 2021-yil oktabrdan 2023-yil oktabrgacha bo'lgan davrda AQSh chegarasini noqonuniy kesib o'tishga uringan 13 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarosi qo'lga olingan. (AQSh bojxona va chegara xizmati, 2023-yil). AQShning O'zbekistondagi elchixonasi AQSh chegarasini noqonuniy kesib o'tganlar uchun kamida besh yil muddatga qonuniy qayta kirish cheklovi qo'llanilishini ma'lum qildi. Bundan tashqari, noqonuniy migratsiyaga yordam bergan kishilar oila a'zolari ham AQShga viza olish huquqidan butunlay mahrum bo'lishlari mumkinligini ma'lum qildi (AQShning O'zbekiston elchixonasi, 2023-yil). O'zbekiston fuqarolarining AQShga kirishi uchun eng xavfsiz va qonuniy yo'l Diversity Visa (DV) dasturi bo'lib qolmoqda. AQShda immigratsiya qonunchiligining kuchaytirilishi mamlakatning

Yevropa Ittifoqidan AQShga kelayotgan O'zbekiston fuqarolardan tranzit vizalar talab qilishni so'rganidan ham yaqqol ko'rinib turibdi.

Shu bilan birga, 2023-yil yanvar-oktyabr oylarida O'zbekistonga turli maqsadlarda 20,573 nafar AQSh fuqarolari kirib kelgan, shundan 16,006 nafari hordiq chiqarish, 2,329 nafari xizmat safari bilan, 1,676 nafari qarindoshlarini ko'rish, 336 nafari tijorat maqsadida va 226 nafari boshqa sabablarga ko'ra O'zbekistonga tashrif buyurgan. (O'zStat, 2023-yil)

2023-yilda AQShda ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 1,089 nafardan oshgan, bu undan oldingi o'quv yilidagi 631 nafar talabaga nisbatan 72.6 foizga ko'paygan. 2023-yilda AQShdagi barcha o'zbekistonlik talabalarning 57.2 foizi (623 kishi) bakalavr bosqichida, 29.9 foizi (326 kishi) magistratura bosqichida, 7.9 foizi (86 kishi) amaliy mashg'ulotlarda va 5 foizi (54 kishi) ingliz tilini o'rganish kabi qisqa dasturlarda qatnashgan (AQShning O'zbekistondagi elchixonasi, 2023-yil).

14-rasm Ta'lim dasturi turlari bo'yicha AQShdagi o'zbekistonlik talabalarining ulushi, 2023-yil (foizda)



Manba: AQSh elchixonasi. 2023-yil

Iqlim o'zgarishi va migratsiya

[Migratsiya vaziyatiga oid hisobotda \(2023-yil aprel-sentyabr\)](#) qishloq xo'jaligining mamlakat yalpi ichki mahsuloti va ishchi kuchidagi o'rni muhokama qilingan edi. O'zgaruvchan iqlim va keskin ob-havo hodisalari tufayli hayot tarzining buzilishi sharoitida ekotizimlardagi o'zgarishlar aholining turli xil mobilligiga, xususan, chorvachilik muhiti, mehnat migratsiyasi, majburiy ko'chish va rejalashtirilgan ko'chish kabilarga ta'sir qilmoqda (IO'HP, 2019-yil).

2023-yil dekabr oyida Dubayda bo'lib o'tgan COP28 anjumanidan so'ng mamlakatda iqlim o'zgarishining migratsiyaga ta'siri haqidagi munozaralar avj oldi. O'zbekiston Prezidenti 2024-yilda Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda "Iqlim migratsiyasi" global tadbiri o'tkazilishini e'lon qildi (Prezident matbuot xizmati, 2024-yil).

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda tabiiy ofatlar bilan bog'liq 27 ta favqulodda holat qayd etilgan bo'lib, 2022-yilda qayd etilgan 55 ta holatga nisbatan sezilarli darajada kamaygan (FVV, 2023-yil). Bu hodisa 2022-yil 29-iyun kuni mamlakatda eng yuqori haroratni qayd etgan O'zgidromet ma'lumoti bilan ham tushuntirilishi mumkin. O'zbekiston iqlim o'zgarishi ta'siriga juda ta'sirchan bo'lib, bu tabiiy kapitalga, qishloq xo'jaligi sohasiga, jumladan, yer va suvdan foydalanishga tahdid soladi hamda tabiiy ofatlar xavfini oshiradi. Mamlakat iqlim o'zgarishlariga nisbatan zaiflik bo'yicha 185 mamlakat orasida 43-o'rinni egallamoqda (ND-GAIN, 2021-yil)..

Noqonuniy migratsiya

O'zbekistondagi xalqaro noqonuniy migrantlar soni haqidagi ma'lumotlar rasmiy manbalarda mavjud emas, xorijdagi o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar esa qisman mavjud bo'lib, ular har bir davlatga qarab farqlanadi.

Turkiya Respublikasi MBR xabariga ko'ra, 2023-yil davomida mamlakatda qo'lga olingan o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soni 9,649 nafarni tashkil qilgan. Bu 2022-yil oxiridagi o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soniga (7,553 kishi) nisbatan 21.7 foizga oshgan (MBR, 2024-yil).

Avval xabar qilinganidek, 2022-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlarida 2,145 nafar O'zbekiston fuqarolari noqonuniy tarzda bo'lib turganligi aniqlangan va bu ma'lumotlar 2023-yil uchun hozircha mavjud emas (Yevrostat, 2023-yil).

2023-yil dekabr oyida AQSh O'zbekistondan kontrabandachilar yordamida AQSh-Meksika chegarasini noqonuniy tarzda kesib o'tgan va AQSh chegara idoralari tomonidan qo'lga olingan 199 nafar noqonuniy migrantni O'zbekistonga

deportatsiya qildi (TMMA, 2024-yil). Yaqinda AQSh rasmiylari 2023-yilda Markaziy Osiyo davlatlaridan 50,000 dan ortiq odam AQShga noqonuniy ravishda mamlakatga kirganini ma'lum qildi (Daily Mail, 2024-yil). Shu bilan birga, Tranzaksiya qaydnomalari axborot markazi (TRAC) nodavlat-notijorat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirda Markaziy Osiyodan 40,000 dan ortiq shaxslar, jumladan 17,000 O'zbekiston fuqarolari AQShda boshpana olish bo'yicha sud jarayonini kutmoqda (TRAC, 2024-yil).


Ayni paytda Lotin Amerikasi davlatlarida AQShga ketayotgan o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soni so'nggi paytlarda sezilarli darajada oshdi. Gonduras Milliy migratsiya instituti (GMMI) 2023-yilda mamlakatda 5,153 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar aniqlanganligini ma'lum qildi, bu 2022-yilda mamlakatda ro'yxatga olingan o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar sonidan (283 kishi) ancha yuqori (GMMI, 2023-yil). Shu bilan birga, Meksika Statistika boshqarmasining Migratsiya siyosati bo'limi (MSB) 2023-yilda Meksikada jami 6,098 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrant aniqlanganini ma'lum qilgan (MSB, 2023-yil).

O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi

O'zbekiston Markaziy banki (MB) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonga xorijdan o'tkazilgan jami pul o'tkazmalari hajmi 11,4 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va bu 2022-yildagi pul o'tkazmalari oqimiga (16,9 milliard AQSh dollar) nisbatan 32.5 foizga kamaygan. (MB, 2024-yil). Jami pul o'tkazmalari tushumi 2023-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining (90,8 milliard AQSh dollari) deyarli 12.5 foizini tashkil etgan (O'zStat, 2024-yil). O'tgan yilda pul o'tkazmalari oqimining kamayishi O'zbekistondan mehnat migrantlari boruvchi mamlakatlar valyutalarining qadrsizlanishi va 2023-yilda mehnat migratsiyasi oqimining qisman qisqarishi bilan izohlanadi (MB, 2024-yil).

Shuningdek, mazkur davrda O'zbekistondan mehnat migratsiyasi oqimining geografik jihatdan bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilinayotgani qayd etildi. O'zbekiston MB ma'lumotlariga ko'ra, rubl kursining yuqori o'zgaruvchanligi, inflyatsiyaning kuchayishi va migratsiya oqimining kamayishi sharoitida Rossiya Federatsiyasidan mamlakatga yuborilayotgan pul o'tkazmalarining ulushi xorijdan

15-rasm. O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi va pul o'tkazmalari manbalarining mamlakatlar bo'yicha ulushi, 2023-yil (milliard AQSh dollari va foiz)



Manba: MB, 2024-yil

yuborilayotgan umumiy pul o'tkazmalari hajmida 2022-yildagi 87 foizdan 2023-yilda 78 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlardan pul o'tkazmalari oqimi hajmi o'tgan yilga nisbatan 14 foizga o'sgan (MB, 2024-yil).

Avvalroq Jahon banki guruhi (JBG) 2023-yilda O'zbekistonga pul o'tkazmalari hajmi 16,1 milliard AQSh dollari atrofida bo'lishini taxmin qilgan edi. Mamlakatga pul o'tkazmalari oqimining doimiy qisqarishining asosiy omillari Rossiya Federatsiyasidan pul o'tkazmalarining sekinlashishi, o'zbekistonlik mehnat migrantlari sonining qisqarishi va Rossiya Federatsiyasida yuqori inflyatsiya sur'atlari hamda ushbu davrda o'zbek so'mining Rossiya rubliga nisbatan qimmatlashishi bilan izohlangan (JBG&KNOMAD, 2023-yil).

MB prognozlariga ko'ra, o'zbekistonlik mehnat migrantlariga asosiy qabul qiluvchi mamlakatlardagi mehnat bozorlarida kutilayotgan yuqori talab tufayli O'zbekistonga pul o'tkazmalari 2024-yilda 6-8 foizgacha oshishi mumkin (MB, 2024-yil).

Migratsiya ma'lumotlari bo'yicha IOM malaka oshirish sessiyalari

2023-yilda IOM migratsiya ma'lumotlarini yig'ish sohasida malaka oshirish bo'yicha O'zbekistondagi tegishli davlat tashkilotlari vakillari uchun Mobillikni kuzatish matrisasi (Mobility Tracking Matrix – MTM) treninglari va sessiyalarini o'tkazdi. 2023-yil noyabr oyida IOM Toshkentda IOM Inson Mobillichi ma'lumotlari to'plami bo'yicha trening sessiyasini o'tkazdi, unda Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi kabi tegishli davlat organlari vakillaridan 18 nafar ishtirokchi (14 erkak va 4 ayol) qatnashdi. Ushbu sessiyalar mamlakat va mintaqada migratsiya bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash bo'yicha tegishli davlat organlarining bilim va malakasini oshirishga hissa qo'shdi.

Qisqartmalar

AQSh	Amerika Qo'shma Shtatlari
BBC	Britaniya radioeshittirish korporatsiyasi
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
BKQV	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi
DW	Deutsche Welle axborot agentligi
JBG	Jahon banki guruhi
GMMI	Gonduras Milliy migratsiya instituti
IIV	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
IKMM	Ichki ko'chish monitoring markazi
IOM	Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot
IO'HP	Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel
KIX	Koreya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Koreya immigratsiya xizmati,
KNOMAD	Migratsiya va rivojlanish bo'yicha global bilimlar hamkorligi
MAIMV	Qozog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi
MB	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
MBR	Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya boshqarmasi raisligi
MDH	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi
MTM	Mobillikni kuzatish matritsasi
MSB	Meksika Statistika boshqarmasi
ND-GAIN	Notrdam xalqaro moslashuv tashabbusi
OTB	Osiyo taraqqiyot banki
QozStat	Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi qoshidagi Milliy statistika byurosi
PISJ	Polsha ijtimoiy sug'urta jamiyati
RosStat	Rossiya Federatsiyasining Federal davlat statistika xizmati
TMMA	O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi
TRAC	Tranzaksiya qaydnomalari axborot markazi
UNHCR	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi
O'zgidromet	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya agentligi
O'zStat	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zStatistika agentligi
Yel	Yevropa Ittifoqi
Yevrostat	Yevropa Ittifoqi statistika platformasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

AQSh aholini ro'yxatga olish byurosi

2023 [Amerika Qo'shma Shtatlarida tanlangan aholi profili: O'zbekiston](#), AQSh Aholini ro'yxatga olish byurosi veb-sayti.

AQShning O'zbekistondagi elchixonasi

2023 [O'zbekistonliklarning AQShdan chiqarilishi](#), AQSh elchixonasi veb-sayti.

2023 [AQShda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni rekord darajaga yetdi](#), AQSh elchixonasi veb-sayti.

Britaniya radioeshittirish korporatsiyasi axborot agentligi (BBC)

2023 [Nega Markaziy Osiyodan kelgan muhojirlar Baxmut yaqiniga tushib qolishdi](#), BBC veb-sayti.

Daily Mail axborot agentligi

2024 [2023-yilda 50,000 dan ortiq markaziy osiyoliklar AQSh chegarasini noqonuniy kesib o'tgan](#), Daily Mail sayti.

Deutsche Welle axborot agentligi (DW)

2023 [Politsiya migrantlarga qarshi reydlar o'tkazdi](#), DW veb-sayti.

Gonduras Milliy migratsiya instituti (GMMI)

2024 [Muntazam migrantlar oqimi](#), GMMI veb-sayti.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel

2023 [IO'HP iqlim o'zgarishi va yer bo'yicha hisoboti](#), IO'HP veb-sayti.

Jahon banki guruhi (JB) va Migratsiya va rivojlanish bo'yicha global bilimlar hamkorligi (KNOMAD)

2023 [Xususiy kapitalni safarbar qilish uchun diaspora moliyasidan foydalanish](#), KNOMAD veb-sayti.

Koreya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Koreya immigratsiya xizmati (KIX)

2024 [Immigrantlar va chet ellik migrantlar statistikasi](#), KIX veb-sayti.

Meksika Statistika idorasining Migratsiya siyosati boshqarmasi (MSB)

2023 [Meksikadagi noqonuniy migratsiya holati](#), MSB veb-sayti

Notre Dame xalqaro moslashish tashabbusi

2023 [Mamlakatlarning zaiflik va tayyorlik bo'yicha indeksi](#), ND-GAIN veb-sayti

Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqarmasi raisligi (MBR)

2023 [Yashash uchun ruxsatnomalar](#), MBR veb-sayti.

2023 [Noqonuniy migratsiya](#), MBR veb-sayti.

Polsha ijtimoiy sug'urta jamg'armasi (PISJ)

2023 [Polshada ijtimoiy ta'minot](#), PISJ veb-sayti.

Qozog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi (MAIMV)

2023 [Qozog'istonda 12,8 mingdan ortiq chet el fuqarolari ishlaydi](#), MAIMV veb-sayti.

Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi huzuridagi Milliy statistika byurosi (QozStat)

2023 [Qozog'iston Respublikasi aholisi migratsiyasi](#), QozStat veb-sayti.

Rossiya Federatsiyasi Federal davlat statistika xizmati (RosStat)

2023 [2023-yil yanvar-oktyabr oylarida Rossiya Federatsiyasidagi ijtimoiy-demografik vaziyat](#), Rosstat veb-sayti.

Tranzaksiya qaydnomalari axborot markazi (TRAC)
2023 [Immigratsiya sudi ortida](#), TRAC veb-sayti.

Yevropa Ittifoqining Statistika boshqarmasi (Yevrostat)
2024 [Migratsiya statistikasi](#), Yevrostat veb-sayti.

O'zbekiston Respublikasining Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA)
2023 [2023-yil uchun TMMA jami ma'lumotlari](#), TMMA veb-sayti.
2023 [AQShdan 119 nafar noqonuniy migrant qaytarildi](#), TMMA press-relizi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya agentligi (O'zgidromet)
2023 [Ob-havo ma'lumotlari](#), O'zgidromet veb-sayti.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV)
2023 [Favqulodda vaziyatlarning qiyosiy diagrammalari](#), FVV veb-sayti.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB)
2024 [2023-yil uchun pul-kredit tahlili](#), MB veb-sayti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati
2023 [O'zbekiston Prezidenti global iqlim kun tartibi doirasida bir qancha muhim tashabbuslarni ilgari surdi](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat)
2024 [O'zbekistondagi demografik holat – 2023-yil yanvar- dekabr \(Dastlabki ma'lumotlar\)](#), O'zStat veb-sayti.

Ushbu hisobotda bildirilgan fikrlar mualliflarga tegishli bo'lib, Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning (IOM) qarashlarini aks ettirmaydi. Hisobot davomida foydalanilgan belgilar va materiallar IOM tomonidan biron bir mamlakat, hudud, shahar yoki makonning hamda uning hokimiyat organlari huquqiy maqomi, uning sarhad yoki chegaralariga taalluqli hech qanday fikrni bildirmaydi.

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning (IOM)
O'zbekistondagi vakolatxonasi

O'zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Lomonosov ko'chasi, 4-uy, 100077

© 2024 Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

Qo'shimcha ma'lumot uchun
IOM Toshkent ofisiga murojaat qiling
Elektron manzil: iomtashkent@iom.int

